

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UMAROVA MEHRINISO IBRAGIM QIZI

**QOIDALI O‘YINLAR ASOSIDA BOLALARNING JISMONIY VA
RUHIY RIVOJLANISHI UYG‘UNLIGINI TA‘MINLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 –Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz– 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Umarova Mehriniso Ibragim qizi

Qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasini takomillashtirish 5

Умарова Мехринисо Ибрагим кизи.

Совершенствование методики обеспечения гармонии физического и психического развития детей на основе регулярных игр 25

Umarova Mekhriniso Ibragim kizi

Improving the methodology of ensuring the harmony of children's physical and mental development based on regular games 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UMAROVA MEHRINISO IBRAGIM QIZI

**QOIDALI O‘YINLAR ASOSIDA BOLALARNING JISMONIY VA
RUHIY RIVOJLANISHI UYG‘UNLIGINI TA‘MINLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 –Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz– 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi, Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.Phd/Ped5362 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) institut veb sahifasi (www.tdpi.uz) va «ZiyoNet»elektron ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kamolov Iftixor Baxtiyorovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djamilova Nargiza Nuritdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 26-may soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Yangiobod mahallasi, At-Termiziy ko'chasi 1A-uy. Tel: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56; e-mail terdpi.@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№26 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Yangiobod mahallasi, At-Termiziy ko'chasi 1A-uy. Tel: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56; e-mail terdpi.@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 13-may kuni tarqatildi.
(2026-yil 13-maydagi 26-raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.A.Kuldasheva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

M.K. Ismailov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d.,(PhD) dotsent.

O'.N. Sultanova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Zamonaviy ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy hamda ruhiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar orasida qoidali o'yinlar alohida o'rin tutadi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda o'yin faoliyati bolalarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanilmoqda. AQSH, Finlyandiya, Yaponiya, Koreya, Germaniya kabi mamlakatlarda maktabgacha ta'lim dasturlarida "structured play" (qoidali o'yinlar) bolalarning motorika, e'tibor, ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida tan olingan. Ushbu tizimda qoidali o'yinlar orqali bolalarda muvofiqlashtirilgan harakat, diqqatni boshqarish, hissiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, o'zini tutish madaniyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga erishilmoqda.

BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda YUNISEFning erta bolalik ta'limini rivojlantirish strategiyasida bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, o'yin faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, shuningdek, sog'lom turmush tarzini erta yoshdan shakllantirish global ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. YUNISEF Early Childhood Development (ECD) Strategy 2021–2030 hujjatida esa o'yin faoliyatlari bolalarning ruhiy, ijtimoiy va jismoniy salomatligini mustahkamlovchi asosiy pedagogik vosita sifatida ko'rsatilgan. Ushbu yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, qoidali o'yinlar nafaqat bolalarda harakat faolligini oshiradi, balki ularning psixologik muvozanatini, ijtimoiy muloqot madaniyatini va emotsional barqarorligini ham ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlashda o'yin faoliyati muhim vosita hisoblanadi. Shu faoliyat vositasida u tashqi ijtimoiy olamni biladi, uning dunyoqarashi va ma'naviyatiga aloqador bilimlar zahirasi to'planadi. Ijtimoiy tasavvurlar bola ongidagi shunday bilim, tushuncha, g'oya va tasavvurlar majmuiki, ular bevosita bolani o'rab turgan ijtimoiy hodisalar, qadriyatlar mohiyatidan kelib chiqadi va bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Biroq respublikamizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va metodistlarining pedagogik faoliyatida ta'limning boshqa vositalari kabi o'yinlardan ommaviy foydalanish masalasi ham o'z ijobiy yechimini topmagan. Buning asosiy sabablari sirasiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlarni o'tkazish metodikasi bo'yicha yetarlicha asoslangan uslubiy ishlanmalarning yo'qligi, mashg'ulotlar jarayonida o'tkaziladigan o'yinlarning o'rni mavhumligi, turli xil mavzularni o'rganishda turli o'yinlarga qo'yiladigan talablarning ishlab chiqilmaganligini kiritish mumkin. Vaholanki, qoidali o'yinlar bolalarda gapirish motivlarini vujudga keltiradi, ularni dunyoni anglashga qiziqishini uyg'otadi, bu esa o'z navbatida bola shaxsining ta'limi-tarbiyasi va kamoloti samaradorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 19-martdagi PF-51-son "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi, qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi muammosi bo'yicha bir necha izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotchi olimlar, psixologlar, jumladan mamlakatimiz olimlari M.Berdiyeva, M. Salihova, R. Asadova, K. Zaripov, B.R. Adizov, T. G'afforova, N. Ortiqov, O. Roziqov, H. Nazarova, U. Musaev, Z.X. Abdinazarova, T.T. G'aniev, G.N. Najimova, Sh.O'. Nurullaeva, O.P. Aslonova, Z. Jo'rayev va boshqalar bolalarni pedagogik qo'llab quvvatlash, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, muammoli topshiriqlar vositasida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, bilish faoliyatini faollashtirish, o'qitish texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv hamda tarbiya va rivojlantirish metodlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N. Leontev, V.P.Zinchenko, B.B.Repkin, N.F.Talizina, M.E.Bershadskiy, V.V.Znakov, N.I.Shevandrin va boshqalar pedagogika va ta'lim metodikasi, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, bolalar rivoji sohalarida, didaktikada bolalarning bilish faoliyati muammosining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishtirish omillarini o'rgangan bo'lsalar, o'yin nazariyasi va uning ta'lim jarayonida qo'llanishi masalalari N.V. Abanina, I.G. Abramova, N.P. Anikeyeva, R.S. Appatova, Y.I. Balakireva, V.M. Bukatov, V.D. Ponomarev, E.N. Savelyeva, D.V. Elkonin, M.G. Yanovskaya kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Xorijiy pedagog va psixolog olimlar, jumladan A. Yolanda, N. Nicotera, Hyewon Son, J. Shih, Jinho Kim, L.D. Breeman, van Lier, Theo Wubbels, R. Sears, J.L. Spilt, E. Vervoort, A. Koenen, F. Clemente, A. Amutio va L. Gonzalez o'yinni uning maqsadi, unda ishtirokchilar soni va ob'ektiv voqelikni ifodalash xususiyatiga ko'ra tasniflaganlar: syujetli, rolli, ishchan, imitasion va dramatik o'yinlar.

Shuni ta'kidlash joizki, yurtimizda maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni qoidali o'yinlar asosida jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash borasida yetarlicha ilmiy tadqiqotlar mavjud emas. Shu bois, ilmiy tadqiqot ishi davomida bolalarga yosh davridan boshlab qoidali o'yinlarni olib borish asosida

ularning jismoniy va ruhiy rivojlantirishga yo'naltirilgan masalalar yuzasidan tayyorlangan qator dissertatsiya ishlari tahlil qilindi. Shulardan, O'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini takomillashtirish texnologiyasi B.R.Xudoyberdiev, o'zbek maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni rus tilida og'zaki nutq ko'nikmasini didaktik o'yinlar orqali shakllantirish F.R. Qodirova, "Didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish" I.B.Xo'jamovalarning ilmiy ishlari taxlil qilindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining RZ-202004165 "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish (amaliy olim ayollar granti)" loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2023).

Tadqiqotning maqsadi Qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi darajasini aniqlash hamda psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish.

maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasining metodik tizimini takomillashtirish.

qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasi modelini ishlab chiqish

qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasining samaradorligini aniqlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqot obyekti sifatida qoidali o'yinlar asosida 6-7 yoshli bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Surxondaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga qarashli Termiz shahar 20 va 28 sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan 120 nafar, Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga qarashli Qarshi shahar 25 va 48 sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan 122 nafar, Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga qarashli Buxoro shahar 29 va 67 sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan 118 nafar, jami 360 nafar katta va tayorlov guruh bolalari jalb etildi.

Tadqiqot predmetini qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasining mazmuni, shakli, metodi va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, savolnoma o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik usullar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar)dan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlantirishning pedagogik tizimi sinxron rivojlantirishning ta'sir mexanizmi hamda pedagogik-psixologik rivojlantirish darajasi o'zaro ta'siriga doir nazariy-metodik yondashuv asoslarini faoliyat jarayoniga ko'ra tartibli tizimlashtirish asosida aniqlashtirilgan.

maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy va ruhiy rivojlantirish metodikasi pedagogik jarayonga kooperativ, muammoli, imitatsion, visual, og'zaki integrativ-korrelyatsion o'yin metodlarini strukturaviy va izchil tashkil etish hamda jismoniy va psixik rivojlanish ko'rsatkichlarini prioritetlashtirish asosida takomillashtirildi.

qoidali o'yinlarni o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari faoliyat jarayonining texnologik xaritasiga kvest texnologiyasini sintezlash hamda koordinatsiya va emotsiyalarni rivojlantiruvchi "Logo uz" nomli platformasini amaliyotda qo'llash asosida takomillashtirilgan.

qoidali o'yinlarda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirish pedagogik modelining jarayonli bloki texnologik va tashkiliy bosqichlarga rivojlantiruvchi komponentlarni qo'shish hamda The Global Institute for Play-Based Learning (GiPBL) dasturining First steps, Step by step stadiyalarini translyatsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o'yinlar asosida jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini takomillashtirishga oid yaxlit pedagogik tizim ishlab chiqilgan, baholash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

Qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasiga doir integratsiyalashgan o'yin yondashuvi ishlab chiqilgan va tavsiyalar berilgan;

"Qoidali o'yinlar asosida bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini taminlash metodikasini takomillashtirish (Logo uz)" dasturi yaratilgan. Ushbu dasturda maktabgacha yoshdagi bolalarga qoidali o'yinlarni olib borishning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik o'yinni o'tkazish metodikasi, faoliyatlarga tayyorgarlik ko'rish, o'yinni o'tkazish hamda o'yin natijalarini nazorat qilish bosqichlari keltirilgan hamda pedagogik tajriba-sinov ishlarida uning samarali ekanligi olingan natijalar bilan isbotlangan;

bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlantirishning samarali usullari kompleks ya'ni jismoniy, ruhiy, emotsional, ijtimoiy yondashish jarayonini tashkil etishga doir "Maktabgacha ta'lim va tarbiya pedagogikasi I" deb nomlangan o'quv qo'llanma yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematikstatistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning faoliyatlar jarayonida qo'llaniladigan qoidali o'yinlarning tasnifi ishlab chiqilganligi va ilmiy-nazariy

jihatdan asoslantirilganligi, qoidali o‘yinlarda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanish uyg‘unligini ta’minlash metodikasini takomillashtirish modeli va ushbu model asosida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tajriba kursi yaratilganligi, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirishda qoidali o‘yin o‘tkazish metodikasi va didaktik o‘yinlar smaradorligini ta’minlashning pedagogik shartlari ishlab chiqilganligi, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanish uyg‘unligini aniqlash mezonlari va bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi darajalari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg‘unligini ta’minlash metodikasini takomillashtirish jarayonini faollashtirish, ularning qobiliyati, imkoniyatini hisobga olish asosida topshiriqlar, ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitilganligi, innovatsion metodlarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, oliy o‘quv yurtlarining maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg‘unligini ta’minlash metodikasini takomillashtirish muammosini hal etish jarayonida samarali foydalanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi natijasida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi harakatli komponentlar orqali aniqlangan, bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlantirishning samarali usullari jismoniy, ruhiy, emotsional ijtimoiy yondashish asosida kompleks takomillashtirish natijasida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg‘unligini ta’minlash metodikasini takomillashtirish mazmuni bolalarning aqliy-jismoniy rivojlanganlik darajasini diagnostik usullar bilan tashxislash, pedagogik jarayonining muvofiqlashtiruvchi vazifasini harakatli komponent orqali takomillashtirish hamda jismoniy va ruhiy rivojlanish sohasidagi mustaqillik, o‘z-o‘zini jismoniy rivojlantirishning samarali usullarini bo‘yicha xulosa va tavsiyalardan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya pedagogikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 maydagi 232-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 232-522). Natijada, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasini harakatli komponentlar orqali aniqlashga xizmat qilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy va ruhiy rivojlanish uyg‘unligini ta’minlash metodikasi integratsiyalashgan o‘yin yondashuvini ishlab chiqish asosida takomillashtirildi. Bunda qoidali o‘yinlar asosida bolalarning motorika, koordinatsiya, diqqatni jamlash, ijtimoiy ko‘nikmalari va hissiy barqarorliklarini bir jarayonda rivojlantirishga oid tavsiyalar RZ-202004165 “Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish (amaliy olim ayollar granti)”(2021-2023) nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-noyabrdagi №04/1-3178 raqamli dalolatnomasi). Natijada qoidali o‘yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg‘unligini takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etishga sharoit yaratilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarga qoidali o'yinlarni o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik o'yinni o'tkazish metodikasi, faoliyatlarga tayyorgarlik ko'rish, o'yinni o'tkazish hamda o'yin natijalarini nazorat qilish bosqichlari integratsiyalandi va "Logo uz" nomli mobil platformagasiga singdirilgan va pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida foydalanilgan.(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi DGU 31322 raqamli guvohnomasi, O'zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrda 16.12.2023 yil ro'yxatdan o'tkazildi.) Natijada bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlash metodikasini takomillashtirish faoliyatini tizimli rivojlantirish mexanizmini qaror toptirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 2 ta xalqaro, 2 ta respublika jurnallarda, 4 ta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishining muhim natijalari yuzasidan 14 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta DGU, O'zbekiston Oliy Attestasiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika jurnallarida, 3 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, jami 150 sahifa matn hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirish uyg'unligini ta'minlashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosiga doir pedagogik, psixologik, ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida qoidali o'yinlardan foydalanishning o'rni va ahamiyati, qoidali o'yinlar klassifikatsiyasi va ularning bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari, qoidali o'yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy va ruhiy rivojlantirish muammosi, pedagogik shart-sharoitlari bayon qilingan.

Hozirgi zamonaviy davr talabi – jamiyatda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk shaxslarni voyaga yetkazishdir. Har tomonlama barkamol avlod esa porloq kelajakning garovidir. Shu sabab, yoshlarni qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bolalik inson hayotining eng

muhim davrlaridan biri bo'lib, unda jismoniy, psixik va ijtimoiy xususiyatlarning asoslari shakllanadi. Har bir yosh davri o'ziga xos biologik, psixologik va pedagogik xususiyatlarga egadir. Inson hayotining ilk bosqichida jismoniy o'sish tezligi yuqori bo'ladi, bu esa markaziy nerv tizimi va psixik jarayonlarning jadallashuvi bilan uzviy bog'liqdir.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilib, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida taklif qilingan tadqiqot aniq dolzarflik va ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada bolalarni qoidali o'yinlar asosida jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasini aniqlash uchun avvalo amaldagi komponentlar va dasturlarni tahlil qilib ko'rildi. Quyida bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unligini ta'minlovchi komponentlardan "mazmuniy komponent", "metodik-didaktik komponent", "psixologik komponent", modeldan "integrativ tarbiya modellari" dasturlardan "Harakat orqali o'rganish", "Psixomotor rivojlanish" dasturlari keltirilgan. Ushbu komponentlar va dasturlar asosida bolaning jismoniy-ruhiy rivojlanishidagi uyg'unliklar aniqlab boriladi.

Bolalarni qoidali o'yinlar asosida jismoniy va ruhiy rivojlanish uyg'unligi ta'minlovchi aqliy va jismoniy rivojlanish darajasi harakatli komponent orqali aniqlandi. Qoidali o'yinlarda harakatli komponent bolalarning har tomonlama rivojlanishida beqiyos o'rin egallaydi. U nafaqat jismoniy sog'lomlashtirish vazifasini bajaradi, balki bola ruhiy-psixologik jihatdan barkamol bo'lishi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi va axloqiy fazilatlarini egallashida muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, biz o'z tadqiqot ishimizning ta'lim-tarbiya jarayonida qoidali o'yinlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uni amaliyotga to'g'ri tatbiq etish uchun jismoniy-harakatli komponentlar va aqliy-harakatli komponentlarni uyg'un holda olib bordik. Qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun maqsadli, mazmuniy, metodik-didaktik, psixologik, tashkiliy- baholash komponentlari uyg'un qo'llanilishi va bu komponentlar bolalarning jismoniy chiniqishi, ruhiy-emotsional rivojlanishini, pedagogik-psixologik intensivining o'zaro ta'siriga doir kontseptual asoslarni faoliyat jarayoniga ko'ra tizimli formalizatsiyalash lozimligi aniqlandi.

Jismoniy-harakatli komponent orqali bolaning tezkorligi epchilligi, chidamliligi, kuchi, harakat koordinatsiyasi, muvozanat saqlashi, moslashuvchanligini hamda aqliy-harakatli komponentlar orqali qoidalarni tushunish va eslab qolishi, diqqatni boshqarishi, xotirasi, mantiqiy fikrlashi, tasavvur va ijodkorligi, o'zini boshqarish kabi jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi aniqlab olindi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg'unlini ta'minlashning nazariy jihatlarini ochib beradigan bo'lsak ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyat sohasidagi bilimlariga e'tiborimizni qaratmaslikning iloji yo'q deb hisobladik.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning asosiy ta'limiy faoliyat shakli o'yindir. O'yin nafaqat bolalar va kattalarni, balki insoniyat turmushida

muayyan hodisa sifatida, psixologiya va pedagogikada esa maxsus o'rganilayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. U inson hayotiga bolalik davridan kirib kelib to keksalikka qadar birga bo'lib, hayotning barcha jabhalarida shaxsning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Pedagogik adabiyotda o'yinlarning didaktik imkoniyatlarining mohiyatini isbotlashga turli xil qarashlar va yondashuvlar mavjud. Ba'zi olimlar ularni o'qitish usuli deb tasniflashadi, boshqalari o'yinlarni o'quv vositasi sifatida tavsiflashadi. O'yin faqat ta'lim vositasi bo'lmay balki, hordiq chiqarish, o'yin-kulgu, san'at va boshqa ko'rinishlarda ham namoyon bo'ladi.

Amerikalik ruhshunos va psixiatr E. Bern o'yinga quyidagi ta'rifni beradi: "Biz o'yinni aniq belgilangan va bashorat qilinadigan natijaga ega bo'lgan, lekin yashirin motivatsiyaga ega bo'lgan, bir-biridan keyin keluvchi yashirin qo'shimcha transaksiyalar qatori deb ataymiz. Biz bolani tarbiyalashning butun jarayonini qanday o'yinlarni o'ynash va ularni qanday o'ynashni o'rgatish deb bilamiz"

Bizning fikrimizcha, so'nggi paytlarda maktabgacha ta'limda o'yindan foydalanishning dolzarbligi tobora kuchayib bormoqda. O'yin 6-7 yoshli bolalar uchun tabiiy o'rganish shaklidir. U bolalar hayotiy tajribasining bir qismidir. O'yin orqali bilimlarni uzatishda tarbiyachi nafaqat bolaning kelajakdagi manfaatlarini hisobga oladi, balki bugungilarini ham qondiradi.

Tadqiqotimizda qoidali Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik tizimni tahlil qilish jarayonida qoidali o'yinlarning quyidagi muhim xususiyatlari aniqlandi:

o'yin bolalar faoliyatidagi ruhiy jarayonlarni faollashtiradi, ya'ni sezgi, idrok, fikrlash, tasavvur, xotira, e'tibor, nutq va harakat kabi psixik jarayonlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

o'yin ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanadi, bu esa bolalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

o'yin ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda mustaqil fikrlash va yangicha yondashuvni shakllantiradi.

o'yin jarayonida ta'lim oluvchilar chuqur mamnuniyat va quvonch hissini boshdan kechiradilar, bu esa o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatni mustahkamlaydi.

Ushbu xususiyatlar sinxron rivojlantirishning ta'sir mexanizmi hamda pedagogik-psixologik intensivining o'zaro ta'siriga doir kontseptual asoslarni ochishga xizmat qiladi.

Qoidali o'yinning mohiyatini tushunish, uning eng muhim tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishimizga imkon beradi:

– inson hayotining namoyon bo'lishining eng muhim shakli, uning atrofdagi voqelikka faol munosabati sifatida tushunilgan faoliyat;

– bu faoliyatda ruhiy jarayonlar rivojlanadi, insonning aqliy, hissiy va irodaviy fazilatlari, uning qobiliyati va xarakteri shakllanadi;

– qiyofa va uning obyektini nomutanosibligini ko'rsatuvchi voqelik aks etilishining belgisi sifatida tushuniladigan shartlilikdir.

Qoidali o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda jonli qiziqishni uyg'otadi, har bir bolaning individual qobiliyatini rivojlantirishga, bilim faolligini oshirishga imkon

beradi. Qoidali o'yinning ahamiyati uning bolalar tomonidan kelib chiqadigan reaksiyasi bilan emas, balki har bir bolaga nisbatan qo'llaniladigan muayyan masalani hal qilish faoliyat jarayoniga tizimli formalizatsiyalash samaradorligi bilan belgilanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qoidali o'yinlarning katta to'plami mavjud, ammo ularning aniq didaktik tizimi yo'q. Ilm-fanda o'yinlarning ko'plab tasniflari mavjud xususan J.Piaje, L.Vigotsky, D.Elkoninlarning tasniflari mavjudligiga qaramasdan, to'liq variantga da'vo qilmagan holda, biz o'zimizning qoidali o'yinlar klassifikatsiyasini taklif qilamiz, ular maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-jadval

Qoidali o'yinlar klassifikatsiyasi

№	O'yin turi	Yo'nalishi	O'yin turlari (misollar)	Rivojlantiruvchi ta'siri
1	Jismoniy rivojlantiruvchi o'yinlar	Jismoniy	Yugurish, sakrash, quvlash o'yinlari	Kuch, tezlik, chidamlilik, sog'liq
2	Ruhiy (psixologik) o'yinlar	Ruhiy	Mantiqiy o'yinlar, topishmoqlar, xotira mashqlari	Tafakkur, xotira, diqqat, hissiy barqarorlik
3	Ijtimoiy-ruhiy o'yinlar	Ijtimoiy + ruhiy	Jamoaviy o'yinlar, rol o'ynash	Muloqot, hamkorlik, liderlik
4	Aralash (kompleks) o'yinlar	Jismoniy + ruhiy	Strategik-harakatli o'yinlar	Har tomonlama rivojlanish
5	Moslashuvchan o'yinlar	Individual yondashuv	Yoshga mos, sharoitga mos o'yinlar	Individual rivojlanish, moslashuvchanlik

Dissertatsiyada ta'lim jarayonlarining tashkil etilishi bola tarbiyasining aqliy va jismoniy tarkibiy qismlariga majmuaviy ta'sir etish asosida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Xuddi shu xildagi majmuaviy ta'sir qilish orqali bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishda uyg'unlikka asoslangan holistik rivojlantirish asosida samaradorligiga erishish mumkin.

Shu o'rinda didaktik o'yin atamasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, zero mazkur termin tadqiqotimizning konseptual va metodologik asosini tashkil etadi. Pedagogik atamalar tizimida u muhim kategoriya sifatida talqin qilinib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, kognitiv faoliyatni faollashtirish hamda shaxsning kompleks rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, pedagogik atamalar lug'atida "didaktik o'yinlar - ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limiy o'yinlardir". Didaktik o'yinlar konsepsiyasidan kelib chiqib, o'yin faoliyati ta'lim-tarbiya jarayonining muhim pedagogik va metodologik mexanizmi sifatida talqin etiladi. U kognitiv jarayonlarni faollashtirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O‘yin orqali shaxsning kompleks (holistik) rivojlanishi ta‘minlanib, ijtimoiylashuv, kommunikativ kompetensiya va hamkorlik faoliyati shakllanadi. Mazkur jarayon tarbiyalanuvchilarning shaxsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘zlashtirishida muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, o‘yin ijtimoiy-madaniy va didaktik fenomen sifatida falsafiy, pedagogik hamda psixologik tadqiqotlarning obyekti bo‘lib, uning samaradorligi erkinlik, ixtiyoriylik va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyillari bilan belgilanadi.

O‘yinlar va o‘yin faoliyatining pedagogik-psixologik mohiyatidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy hamda ruhiy rivojlanishning psixologik xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodikalar tizimi ishlab chiqilgan. Mazkur metodikalar yosh xususiyatlariga mos ravishda o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etilib, kognitiv, emotsional va ijtimoiy jarayonlarning kompleks rivojlanishini ta‘minlaydi.

Shu asosda harakatli o‘yinlar va jismoniy faollik, rolli va dramatik o‘yinlar, play-based learning, outdoor play hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash va emotsional tarbiya usullarini integratsiyalash orqali bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali pedagogik tizim takomillashtirildi.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg‘unligini ta‘minlashning metodik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o‘yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlantirishning shart –sharoitlari, qoidali o‘yinlarda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirishning pedagogik modeli, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg‘unligini ta‘minlash metodikasi bayon qilingan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy va ruhiy rivojlanishini shakllantirish metodikasi pedagogik jarayonga kooperativ, muammoli, imitatsion, vizual, og‘zaki va integrativ-korrelyatsion qoidali o‘yin metodlarini strukturaviy va izchil tashkil etish, shuningdek jismoniy va psixik rivojlanish ko‘rsatkichlarini prioritetlashtirish asosida takomillashtirildi.

Bolalarning jismoniy va ruhiy faolligini oshirishning muhim shartlaridan biri ta‘lim-tarbiya jarayonida ularning psixologik jarayonlariga stimuly berish va rag‘batlantirishdir. Shu bilan birga, jismoniy va ruhiy rivojlanish uyg‘unligidagi qoidali o‘yin faoliyati quyidagi shartlarda muvaffaqiyatli shakllantirilishi va faollashtirilishi mumkin:

1. Maqsadli natija va ichki motivatsiya: Qoidali o‘yin jarayonlari bolalar tomonidan maqsadli, reglamentga tushiriladigan natija bo‘lib, bunda o‘quv predmetining axborot tashkil etuvchisi asosiy vosita sifatida ta‘lim oluvchilarning ichki qiziqishlarini shakllantiradi.

2. Mustaqil faollik: O‘yin jarayonlari tarbiyalanuvchilar tomonidan shakllangan ichki qiziqishlar asosida mustaqil faoliyat, o‘zini o‘zi tarbiyalash va jismoniy takomillashish jarayonida olingan bilimlardan faol foydalanishga intilishda namoyon bo‘ladi.

3. Kognitiv va emotsional integratsiya: Tarbiyalanuvchilarning aqliy bilish faolligi motivatsiya, qadriyat va ehtiyoj sohalariga maqsadli ta‘sir qilish natijasida yuzaga keladi va ta‘lim hamda boshqa faoliyat turlarining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Qoidali o‘yin jarayonining samaradorligi tarbiyachilarning kompetentligi, kasbiy mahorati, qo‘yilgan ta‘lim maqsadlari va tadbiiq etiladigan ta‘lim shakllariga mosligi, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning tabiiy iqtidori, qiziquvchanligi, harakatchanligi, intiluvchanligi, diqqat va motivatsiya darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘yin jarayoni maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida olib boriladigan faoliyatlar, sayr, kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar bilan integratsiyalashgan holda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi hamda bilish faolligi pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash metodikasini qoidali o‘yinlar, qisman izlanishli va evristik topshiriqlar orqali takomillashtirishga imkon beradi.

Bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirish amaliyoti tashxislash, tashkiliy va tuzatish bosqichlarida kechadi:

Tashxislash bosqichi: o‘yin jarayoni va uning tarkibiy qismlarining boshlang‘ich darajasini aniqlash, shakllanish natijalarini prognozlash va faoliyatning pirovard maqsadini belgilash;

Tashkiliy bosqich: o‘yin jarayonini shakllantirishni ta‘minlaydigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, samarali usul va vositalarni tanlash;

Tuzatish bosqichi: olingan natijalarni baholash, faoliyatni optimallashtirish va dastlabki bosqichlardagi kamchiliklarni bartaraf etish.

Shuningdek, jismoniy va ruhiy rivojlanish sohasidagi umumiy ta‘lim jarayonlari insonparvarlik tamoyili, ong va faoliyatning birligi hamda izchillik va tizimlilik tamoyillariga asoslanadi.

Bolalarning qoidali o‘yin jarayonida aqliy va jismoniy faoliyatdagi mustaqilligi bosqichma-bosqich shakllanadi:


1. Oldindan rejalashtirilgan vazifalarni bajarishga qiziqish paydo bo‘lishi;
2. O‘z-o‘zini nazorat qilish va bajarilgan ishlarni tahlil qilish;
3. Mustaqil rejalashtirish;
4. Ijodiy tashabbus, maqsadlarni mustaqil belgilash va amalga oshirish, faoliyatni ongli yo‘lga qo‘yish.

Shu tarzda, qoidali o‘yinlar pedagogik jarayonda bolalarning jismoniy, ruhiy va kognitiv rivojlanishini integrativ va tizimli shakllantirish, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-amaliy asosini tashkil etadi.

Bolalarning o‘yin faoliyatida jismoniy va ruhiy rivojlantirish jarayoni mazmun-mohiyati beshta o‘zaro bog‘liq bosqichning tuzilmaviy ketma-ketligi ko‘rinishida taqdim etiladi. Bular maqsad, tashkiliy, mazmun-mohiyatli, texnologik, natijalarni baholash bosqichlaridir.

Jismoniy va ruhiy rivojlanganlikning har bir bosqichi tajriba ishlarining samaradorligini ta‘minlash imkonini beradi. Chunki shaxs ravnaqining asosiy natijasi uning muayyan bir ko‘rinishdagi faollikni namoyon qilish darajasi orqali aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qoidali o‘yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlanishini shakllantirish sohasida ishlab chiqilgan yangi pedagogik modelning ilmiy yangiligi uning jarayonli bloklari va texnologik-tashkiliy tuzilmasiga bog‘liq.



1-rasm. Qoidali o'yinlarda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirishning pedagogik modeli

Mazkur modelda o‘yin jarayoni nafaqat statik faoliyat sifatida emas, balki bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi komponentlar bilan boyitilgan dinamik tizim sifatida ko‘riladi.

Modelning yana bir innovatsion jihati shundaki, u The Global Institute for Play-Based Learning (GiPBL) dasturining “First steps” va “Step by step” stadiyalarini translyatsiyalash orqali ishlab chiqilgan. Bu esa quyidagi afzalliklarni beradi:

Integrativlik: xalqaro play-based learning metodologiyasi bilan mahalliy pedagogik tajribaning uyg‘unligi;

Bosqichma-bosqich rivojlantirish: bolalar faoliyati dastlabki oddiy harakatlardan murakkab ijtimoiy va kognitiv vazifalarga o‘tishi;

Monitoring va tahlil: har bir stadiya natijalari o‘quv jarayoni davomida baholanadi, bu pedagogga faoliyatni optimallashtirish imkonini beradi;

Moslashuvchanlik: turli yoshdagi va qobiliyatdagi bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda o‘yin jarayonini sozlash.

Mazkur pedagogik model qoidali o‘yinlarning jismoniy, ruhiy va kognitiv rivojlanishga ta‘sirini maksimal darajada integratsiyalash, bosqichma-bosqich shakllantirish va monitoring qilish imkonini beradi. Bu esa maktabgacha ta‘limda qoidali o‘yinlar orqali bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlantirishning metodologik va amaliy samaradorligini oshirishga ilmiy asos yaratadi va uning yangilik sifatida e‘tirof etilishiga sabab bo‘ladi.

Qoidali o‘yinlarda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirishning sohasidagi maktabgacha ta‘lim jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlantirish uyg‘unligi muammosini muvaffaqiyatli hal etishda mazkur holatning rivojlanib borish dinamikasini tizimli nazorat qilishni yo‘lga qo‘yishning funksional modelini taklif etish maqsadga muvofiq (1 rasmga qarang).

Tadqiqot o‘tkazish davomida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uyg‘unligini aynan qoidali o‘yinlar asosida olib borishning tashkiliy-pedagogik modeli ishlab chiqildi, unda Maqsadli, jarayonli va natijaviy bloklar aniqlashtirildi.

Maqsadli blok o‘z novbatida Nazariy, Amaliy, Shaxsiy bloklarga bo‘lindi.

Nazariy blokda bolaning faoliyat sohasidagi bilimlari joy olgan, bunda: o‘qish malakalarini shakllanganligi, elementar matematik tasavvurlarining shakllanganligi hamda dunyoni badiiy anglashi keltirilgan. Amaliy blokda ijtimoiy malakalar, mantiqiy malakalar, jismoniy malakalar keltirilgan. Shaxsiy blokda bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi o‘z aksini topgan. Bunda bolaning turli vaziyatlarda emotsional munosabat ko‘rsatishi, qiyin vaziyatlarda amaliy yechim topa olishi, nizolarni hal etishda bir nechta metodlardan foydalana olishi keltirilgan.

Jarayonli blokda Qoyidali o‘yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanish uyg‘unligini ta‘minlash metodikasini takomillashtirish mazmuni keltirilgan. Yondashuvlar: Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash yondashuvi Jarayonli blok ham o‘z novbatida tashkiliy, mazmuniy, texnologik guruhga bo‘lingan. Tashkiliy guruhda (Nutq, emotsiya, eshitish, joylashuv, maqsad) metodikani tashkil etilish shakllari(interaktiv, sayr-o‘yin, frontal, juftlik, individual) va tamoyillar (Onglilik va faollik, izchillik, tizimlilik, Insonparvarlik) ga bo‘linadi. Mazmuniyga metodlar (Koperativ, muammoli,

imitatsion, visual, og‘zaki) va The Global Institute for Play Based Learning (GiPBL) xalqaro dasturining First steps, Step by step bosqichlari kiritilgan. Texnologik qismiga (xaritani tuzib olish: Kichik, o‘rta, katta, tayyorlov guruhlari uchun) ta‘lim shart-sharoitlari (Pedagogik, Psixologik, Tashkiliy) maktabgacha ta‘lim tashkilotida olib boriladigan faoliyatlar hamda kunning ikkinchi yarmidagi olib boriladigan ishlar keltirilgan.

